

## KORRUPSIYA-KELAJAKKA TAHDID, JAMIYATNI YEMIRUVCHI ILLAT, DAVLATNI TANOZZULGA YETAKLOVCHI YO'L

**Bozorova Xolida Ergashovna**

NDKTU akademik litseyi ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi

**Olimjonova Sarvinoz Jamshid qizi**

NDKTU akademik litseyi xorijiy tillar yonalishi 2-s-21 guruh o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7402978>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada korrupsiyaning vujudga kelishi sabablari, davlatning rivojlanishiga ta'siri va uning oqibatlarini hamda unga qarshi kurash chora tadbirlari haqida so'z yuritilgan.

*Kalit so'zlar:* korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, jamiyat, prezident farmoni, reklama, televideniya.

## КОРРУПЦИЯ - УГРОЗА БУДУЩЕМУ, БОЛЕЗНЬ, РАЗРУШАЮЩАЯ ОБЩЕСТВО, ПУТЬ, ВЕДУЩАЯ К ЗАКАТУ ГОСУДАРСТВА

*Аннотация.* В данной статье говорится о причинах возникновения коррупции, ее влиянии на развитие государства и ее последствиях, а также о мерах борьбы с ней.

*Ключевые слова:* коррупция, борьба с коррупцией, общество, указ президента, реклама, телевидение.

## CORRUPTION IS A THREAT TO THE FUTURE, A DISEASE DESTROYING SOCIETY, THE WAY LEADING TO THE DECLINE OF THE STATE

*Abstract.* This article talks about the causes of corruption, its impact on the development of the state and its consequences, as well as measures to combat it.

*Keywords:* corruption, fight against corruption, society, presidential decree, advertising, television.

Korrupsiya nima? Bu haqda hammaning o'ziga xos tasavvuri, tushunchasi bor, albatta. Qonunda unga shunday ta'rif berilgan: «korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish».

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarligi kabi masalalar aniq belgilab qo'yilgan.

Mazkur qonun bilan yaqindan tanishish, uning har bir moddasini chuqur o'rganib, hayotimizga tatbiq etishga intilish, sodda qilib aytganda, korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushunish, mustaqil idrok etish, eng muhimi, unga qarshi kurashish har birimizning fuqarolik burchimizdir.

Korrupsiya tushunchasi insonlar anglab yetishi uchun, avvalambor u halol va harom tushunchasini tushunishi kerak. Buni farqiga bormaydigan inson korrupsiyaning o'ljasi bo'lib qolaveradi. Kingadir biron ishni tezroq amalga oshirib berishi uchun ham sovg'a salom berish korrupsiyaning boshlanish nuqtasidir.

Korrupsiyaning tarixiy o'zakkari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziydashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Alloh taolo o'zining kalomida shunday marhamat qiladi: "Mol-dunyolaringizni oralaringizda nohaq – harom yo'llar bilan yemangiz! Va bilib turib, odamlarning mollaridan bir qismini gunoh – harom yo'llar bilan yeyish uchun (mollaringizni pora qilib) hokimlarga uzatmang". (Baqara surasi 188-oyat)

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga toboro ko'proq ta'sir ko'rsata boshladi. Bu o'sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, 1787-yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasida pora olish AQSh prezidentini impechmentga tortish mumkin bo'lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o'rning oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Korrupsiyaga qarshi kurash dunyo miqyosida bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan bir bo'lib qolmoqda. Bu illatga qarshi kurash dunyoning ko'plab mamlakatlarini qamrab olmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham korrupsiyaga qarshi kurashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Xozirgi paytda respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash doirasida bir qator dasturlar qabul qilindi va ular bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

2019 yil 09 yanvaridagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5618-sonli, «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni yuzasidan Markaz professor-o'qituvchilari respublikamizning barcha mintaqalarida xizmat safarlarida bo'lishib aholi o'rtasida Farmonda nazarda tutilgan boshqa dolzarb vazifalar qatorida korrupsiyaga qarshi kurashishda aholini huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalarda yuzdan ortiq ma'ruzalar o'tkazishdi.

Ta'kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'I rivojlanmaydi".

Davlat jamiyatni yuksaltirmoqchi bo'lsa, birinchi o'rinda poraxo'rlikni oldini olmog'I lozim. Chunki korrupsiya jamiyatni yemiruvchi illat, u bilan biron bir mamlakat yuqori chuqqiga erisha olmaydi. Inson o'zligini anglab yetsa, Allohdan qo'rqsa, haromdan hazar qilsagina poraxo'rlikning oldini olish mumkin. Korrupsiyani kamaytirish va butunlay yuq qilish uchun maktab, litsey, insitut va universitetlarda korrupsiyaga qarshi turli xil darslar tashkil qilish

lozimdir. Aholi uchun ko'proq reklama va televideniya lavhalarini namoyish etish kerak. Bu bilan jamiyat korrupsiyani qanchalik yomon illat ekanini anglab yetadi.

Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari bugunning muhim vazifalaridan biridir. Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan va huquqiy ta'lim va tarbiya jihatdan yetuk bo'lgan insonlar salbiy illat bo'lmish korrupsiyaga yo'l qo'ymaydilar. Shuni ayta olamanki, korrupsiya insonni hech qachon yaxshilik sari yetaklamaydi.

## REFERENCES

1. "Korrupsiyaga qarshi kurashish" to'g'risidagi qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabr qabul qilingan, senat tomonidan 2016-yil 13-dekabr maqullangan
2. <https://anticorruption.uz/en>
3. <https://naqshband.uz>
4. <http://uzmarkaz.uz>
5. SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan